

O`ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI
DIZAYN FAKULTETI

INTERYER TARIXI FANIDAN

AVTO REFERAT

Mavzu : Rim arxitekturası va interyerlari

Bajardi : 018-16- guruh talabasi Boychiboyeva Shohsanam

O`qituvchi : Dizayn kafedrası katta o`qituvchisi Isoqova Muqaddas

Toshkent - 2018

RIM ARXITEKTURASI VA INTERYERLARI

Reja :

- 1. Qadimgi Rim me'morchiligi**
- 2. Rim imperiyasi va keyingi davrlarda me'morchilik va interyer**
- 3. Zamonaviy Italiya interyerlari**

QADIMGI RIM ME'MORCHILIGI

Qadimgi Rimda me'morchilik yetakchi san'at turlaridan hisoblangan. Qadimgi Rim me'morchiligi Apenin yarimorollaridagi ko`pgina halqlar, jumladan, etrusklar, keyinroq Rim bosib olgan yerlardagi boshqa halqlar me'morchiligi tasirida taraqqiy etdi. Rim arxitekturası rivojiga, ayniqsa, grek arxitekturası kuchli ta'sir o'tkazdi. Rimliklar boshqa halqlarning me'morchiligini o'zlashtirib, o'rganib, uni ijodiy boytdilar, shu me'morchilik an'alarini rivojlantirib, uning yangi ko'rinishlarini ham yaratdilar.

Rimda me'morlik yetakchi o'rinni egalladi. Me'morlikda davlatning kuch - qudratini tarannum etildi. Ibodatxonalari asosiy o'rinni egallagan Gretsiya me'morchiligidan farqli olaroq, Rim me'morchiligida Rim davlat hokimiyatining g'oyalarini va imperator qudratini o'zida mujassam etgan forumlar, amfiteatrlar va tantanavor binolar eng asosiy o'rinni egalladi. Rimliklar ko'pchilikka mo'ljallangan muhtasham binolar qurdilar. Bunday harakterdagi binolar bu davr uchun yangilik bo'ldi. Me'morlikda rimliklarning akl-zakovati yaqqol namoyon bildi.

Rim me'morligi qisman qadimgi SHarq me'morligi san'ati an'alariga hamda ko'p jihatdan etrusk va yunon me'morlik san'ati an'alariga, tayanib rivojlangan. Uni yangi uslublar bilan boytdilar. Ayniqsa, betonni ixtiro etilishi va ustun-to'sin sistemasiga yangi konstruksiyalar kiritilishi, ark, qubba va egri ravoqning erkin va keng qo'llanilishi faqat Rim me'morligida emas, balki jahon me'morlik san'atida ham haqiqiy burilish bo'ldi. Bu sistema katta fazoviy kenglikni yopa oladigan, xona ichida katta fazoviy kenglikni yaratish imkoniyatini beradigan me'morlik kompozitsiyalarini vujudga keltirdi. Qadimgi Rim tarihi eramizdan avvalgi VI asrdan boshlanib, yangi eraning V asrigacha bo'lgan davrni

o`z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib, Rim aristokratlari quldorlik respublikasiga aylandi.

Bu 540 yil er. av. bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. An'anaviy Etruslar tipidagi ibodathonalar qurildi, injenerlik inshootlari, yo`llar, ko`priklar, akveduklar dastlab ular primitiv formaga ega bo`lgan. Er. av. II asr Rim respublikasi qurilishlari tehnikasida katta izgarishlar yuz berdi. Betondan ishlangan inshootlar bunyod bildi. Arkali svodli konstruksiyalar jadal rivojlanishi boshlandi. Arkali akveduklar, kipriklar qurila boshlandi. Uning prolyotlari ancha-muncha keng edi.

Jumladan ikki prolyotli Fabritsiya ko`prigi Tibr daryosiga qurilgan Rimdagi ko`prik er. av. 62 yili qurilgan va bizgacha saqlanib kelgan. Arkasining prolyoti 24, 5 m ga teng. Fuqoro qurilishi sohasida bu davrga kelib, qadimgi Rimda turar joy uylarining qurilishi boshlandi. Er. av. II asr o`rtalarida boy turar uylari vujudga keldi (1-2-rasmlar).

Bunga misol bilib, bu davr uchun saqlanib qolgan Pompeydagi uyni ko`rish mumkin, unda uncha katta bo`lmagan hovli atrium va uning atrofida asosiy turar joy honalar joylashgan. Yana atrium orqasida joylashgan peristil uncha katta bilmagan boq usutunlar bilan o`ralgan. Bu davrda turar uylar kompozitsiyasi ayvonli qilib tashkil qilingan. Bu ayvonlar tabiat bilan bog`langan. Boylar uchun hashamatli villalar qurildi. Yirik quldorlar uchun bunday uylar bilan bir qatorda bir butun kambag`allar turar joy uylari rayonlar, trushobalar qurildi. Bu trushobalarda hattoki eng elementar gigiena uchun ham sharoit yo`q edi. SHashar maydonlari keng, oldin savdo markazi bo`lgan maydonlar forumlarga o`zgartirilgan.

Rim me'morligining o`ziga hos tomonlari, uning asosiy tiplari Rim respublikasi davridayoq namoyon bildi. Doimiy urush va qirg`inlik, grajdan urushlari mantiqan aniq topilgan monumental me'morlik kompozitsiyalarida o`z ifodasini topdi. Eramizdan avvalgi VIII asrda ishlangan mudofaa devorlari, mamlakatning turli qismlarini tutashtiruvchi tosh to`shalgan keng yo`llarning sodda va jiddiy ko`rinishlarida davr ruhi va qurishi san'ati harakteri ko`rinadi.

Jumladan, mashhur Appiy yo`li milodddan avvalgi 312 yilda qurilgan. Bu yo`lda Rim qo`shinlari janglarga borishgan (3-4-rasmlar). Mustahkam ko`prik va osma suv quvurlari (akveduklar) qurilgan. Rimliklar qadimgi Gretsiyaga va boshqa ellinistik davlatlar ustidan shukmron bo`la borgan sari ular qurgan binolar ko`paya bordi va hashami kuchaydi. Miloddan avvalgi III-I asrlarda qurilgan ibodatxona shahar va dala saroylari va boshqa binolar o`zlarining serhashamligi bilan ajralib turadi.

Rimliklar yunon me'morligining order tizimini qabul qildilar va o'z faoliyatlarida keng qilladilar. Rimliklar uchun eng bezakli korinf orderi sevimli orderga aylandi. Yangi kompozitsiya yanada hashamliroq murakkab kompozitsion yechimga ega orderni yaratdilar. Bundan tashqari Rimliklar etruslardan Toskan orderini oldilar, bu order o'z ko'rinishi jihatidan Doriy orderiga o'xshasa sham lekin boshqa rim orderlarida bo'lgani kabi uning ham tag kursisi (pedistali) borligi, frizida metopa kiritilganligi va ustun o'zagida konyulyuralarining yo'qligi bilan ajralib turadi.

RIM IMPERIYASI ME'MORCHILIGI

Miloddan avvalgi 44- yilda respublikachilarning fitnasi tufayli Sezar o'ldirilgan. Fuqarolar urushining yangi Oktavian g'alabasi bilan yakunlanib, u miloddan avvalgi 27- yilda senatdan Avgust unvonini oldi. Avgust hukmronligi davridan boshlab Rim imperiyaga aylanadi. Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukmronlik qilgan yillar (miloddan avvalgi 27 yil milodiy 14 yillar) san'at va madaniyatning haqiqiy rivojlangan bosqichi bo'ldi, Rim davlatining oltin asri hisoblandi. Bu davrida nazariyotchi me'mor Vitruviy, tarixchi, Liviy tarixchi shoirlar Vergiliy va Goratsiyalar ijod etdilar. Ko'plab jamoat va ma'muriy binolar qurildi. Ayniqsa, Rimda qurilish jiddiy tus oldi. Bu davr hashamatli binolari nafis ustunlari, kolonnalari, toq-ravoqli va gumbazli binolari, favvorolari, suv havzalari, yashil tabiat qo'yinida alohida tovlanib, uni yanada ko'rkam va hashamtli ko'rsatar edi. Bizgacha vayronalarda etib kelgan binolarning qoldiqlari hanuzgacha o'zining salobati va ulug'vorligi bilan kishini hayratlantiradi.

Rim me'morligida I asrning ohiri va II asr boshlarida me'morlik majmualari kip qavatli binolar vujudga keldi. Yuliy, Yuliyar, Flaviylar va Sever kabi imperatorlar davrida qurilgan g'oyatda katta saroylar zafar ustunlari, shu davr g'oyasini badiiyan ifodalovchi yodgorliklar sifatida harakterlidir. Me'morlik inshootlaridan biri 81 yilda qurilgan Tit zafar darvozasidir. Keyinroq Septimiy Sever va Konstantinlarga ham atab shunday zafar darvozalar qurilgan. Markaziy maydonlar arxitekturasini boyishi bilan birga yirik inshootlar qurilishi, forumlarga davlat ahamiyati berildi. Rim arxitekturasining keyingi davri respublika davridan imperiya davri arxitekturasiga o'tish davri bo'lib hisoblanadi.

Rim me'morchiligida teatrlar Gretsiyanikidan farq qilib, alohida binolardan iborat bo'lgan va saxna birinchi bor aynan mana shu yerda qo'llanigan. SHasharning markaziy maydonlaridagi forumlar ayniqsa hashamdor bo'lgan. Rimning asosiy yo'llari shu forumlardan boshlangan uning markazida haykallar, monumental ustunlar o'rnatilgan. Forumlar ichida imperator Troyan forumi

alohida ajralib turadi. Uning me'mori Appalador bo'lib, u 107-113 yillarda qurilgan. Bu forumlarning maydoni 116x95 metrlik to'rtburchakni tashkil etgan. O'rtasida 27 metrli ustun joylashgan. Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey Amfitetridir (5-8-rasmlar). Rim me'morchiligining cho'qqilaridan biri 55 ming tomoshabinni bag'riga joylagan Kolizey 72- yilda imperator Vespasian davrida qurila boshlangan va 80- yillarda imperator Tit davrigacha qurilgan. U yerda gladiatorlar jangi bo'lib o'tgan. Kolizey ulkan oval shaklida bilib, uning diametrlari 188x156 m ni tashkil etadi. Devorlarning balandligi esa 48, 5 metrni tashkil qiladi. Gladiatorlar jangi uchun mo'ljallangan bu qurilmaga bir vaqtning o'zida 55 ming tomoshabin kira olgan. Rim me'morligining yana muhim yodgorliklaridan biri Panteon ibodathonasi hisoblanadi.

Rim me'morchiligida ibodatxonalar ham o'z o'rniga ega. Hozirgi kunda vayronalarga aylangan katta ibodatxonalarning ichki qismi ancha murakkab bo'lgan. Misol uchun, Rimdagi Venera va Rom ibodatxonalarida ikki zal bo'lib, yon devorlari ustunlar qatoridan iborat, va bu ustunlar qatori orasida intervalgacha dekorativ nishlar joylashgan (9-rasm). Har bir zalda yarim gumbaz bilan qoplangan apsida bor va bu yer xudolar haykallari bilan bezatilgan bo'lgan. Rimliklar xudolar sharafiga ibodatxonalar qurishgan. Rim ibodatxonalarida yunon ibodatxonalarida bo'lgani kabi, Xudolarining haykali ham bo'lgan. Rimliklarning Doriy, Ionik va Korinf orderlari ibodatxonalarda ham qo'llanilgan.

Eng mashxur Rim ibodatxonasi bu - sharaflı va hozirgacha yaxshi saqlanib kelayotgan barcha xudolarning ibodatxonasi – Panteondir (10-11-rasmlar). U yarim doira shaklidagi qirrador gumbazli , diametri 43 metrdan ortiq bo'lgan inshootdir. Markazida interyerni yoritib turuvchi tuynuk bor, ichki gumbazi hovuzaklarga bo'lingan. Kirish tomoni peshtoqli va 16 ta korinf orderi bilan bezalgan, katta davra binosi rotondasi ustiga yarim sferik gumbaz o'rnatilgan. O'rta asrlarda Panteon cherkovga aylangan. Hozirda esa milliy muzey hisoblanadi.

Imperator Karakala davridagi term (211-216 yillarda qurilgan) ayniqsa katta hashamatga ega bo'lgan. 11 gektar yerni egallagan bu saroy dam olish va ko'ngil ochish uchun mo'ljallangan. Rim me'morligining so'nggi me'morligi rim forumidagi Maksensi bazilikasidir. 306-312 yillarda qurilgan bu bino antik davrning eng katta fuqorolik me'morligi namunasidir. Turli siyosiy yig'ilishlar o'tkazish savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan bu bino ichkaridan uch nefga (qismlarga bilinadi).

Rim Bazilikasi keyingi davrlar arxitekturasiga katta ta'sir ko'rsatadigan Rimning fuqarolik arxitekturasidagi asosiy tipdir. Sud jarayonlari bazilika markazida bo'lib o'tgan, uning ishtirokchilari markaziy nefada to'planishgan (nef

– bu kengaytiriladigan xona, xona kengligini bir qator ustunlar yoki ikki qator ustunlar orqali bir yoki har ikkala uzunlamasi tomondan to'silgan ichki qismi); sud binoning oxirida apsisda joylashgan. Alohida joylar, arkalar bilan ajratilgan, markaziy nef bilan bog'langan. Yonlama o'tish joylari markaziy nefning balandligidan balandroq bo'lgan va bu ulkan derazalar o'rnatishga imkon bergan. Bazilika tosh devorlari yog'och bilan mustahkam konstruksiya hosil qilib urilgan.

Ma'lumki, rimliklar yunonlardan ko'p narsalarni meros qilib olganlar. Biroq, hashamatga bo'lgan qiziqish ularning ichki interyerlarida eng asosiy xususiyatga aylandi. Rimliklar, biz hozir ham foydalanadigan turar-joy binolari tuzilishini ishlab chiqdilar. Bular shahar saroyi, yoki oddiygina uy (domus), undan keyin ko'p qavatli yoki bir qavatli shahar uylari, "insula" nomi bilan atalgan uylar va nihoyat, shahar chetlaridagi villalar misolida ko'rinadi. Bu turar joy binolari Pompeyda olib borilgan qazishmalar tufayli topilgan– Rim uylari interyerlari "domus" ni bilan o'xshashligi qayd etilmoqda.. Ulardagi hashamat hatto bugungi me'yorlar bilan taqqoslaganda takrorlanmas natija hisoblanadi.. Yuqorida tilga olingan Pompey – bugungi kunda qadimgi madaniyat hayoti haqidagi bilimlar omboriga bo'lib hisoblanadi.

Vesuviusning miloddan avvalgi 79-yilda hukmronligida ixtiro qilingan vulqon panellari shaharni asrlar davomida turli ta'sirlardan mustahkam saqlagan. Bu yerda , O'rta asr shaharlariga va hatto Uyg'onish davriga qaraganda, juda ham ajoyib, mustahkam qurilgan binolar bo'lgan. Ko'chalar favvoralar va boshqa chiroyli sun'iy suv inshootlari bilan bezalgan. Bunda favvoralarining estetik ko'rinishi va qiziqarli kompozitsiyasiga e'tibor berib ishlashgan, masalan jonzoqlar tanasining turli qismlaridan suv otiladigan qilib ishlangan.

Boy zodagonlar uylarining ichki hovlisi - perestil bo'lib, bu hovli bog' qilingan va bu bog' turli haykallar bilan bezalgan. Perestilda oqish kursisi va suxbat uchun mo'ljallangan stol – stellar bo'lgan. Perestil zodagonlar dam oladigan tinch joy hisoblangan va uy egasi uchun uning borligi faxr hisoblangan.

Huddi greklarda bo'lgani kabi rimliklar ham tor bino interyerlarida ichki fazoning keng ko'rinishini hosil qilish uchun mahobatli devoriy suratlardan foydalanishgan. Rimliklarning devoriy rangtasviri yetarlicha murakkab va to'liq bo'lgan. Ko'p qavatli gruntovka surilgach marmar kukuni va tuxum bilan hosil qilingan aralashma bilan bo'yaqlar orqali pigment hosil qilib ishlangan. So'ng jun matosi bilan ishlov berilgan va ipak mo'yqalamda o'simlik moyi surib chiqib jilolantirilgan. Devorga shunday ishlov berilgach, qizil yong'oqdan tayyorlangan ko'mirda ishlov berishgan va polotnoni shunday jilolantirishgan.

Marosim binolarining takomillashishi shisha va bronza materiallarining qo`shilishi bilan boyidi. Bronza materialidan turli hayvon yoki inson figurai shakllari yaratilib interyerda qo`llanilgan. Yovuzlikdan halos bo`lgan Meduza Gorgon tasviridagi xalqalar, sfinkslar va turli afsonaviy qahramon va timsollar orqali eshik qulflari, tutqichlarda va uch oyoqli qush ko`rinishida kundalik buyum bo`lgan suv qaynatish anjomlarida bezak uchun qo`llanilgan. Villalar hashamatli bezaklar, marmar va qimmatbaho yog`ochlardan foydalanilganligi bilan ajralib turardi. Devorlari murakkab rasmlar bilan bezatilgan, me`moriy uslublar deb atalgan ustunlarga taqlid qilingan. O`sha paytda, perspektiva qonunlari allaqachon ma`lum bo`lgan, shuning uchun devor rasmlari (ramkali suratlar, illyuzariy arxitektura, haqiqiy ko`rinishdagi narsalar)da ko`p “yolg`on” lar mavjud.

Bosib olingan yerlar madaniyati rim badiiy bezaklariga o`z ta`sirini ko`rsatdi.an`anaviy gullar uyg`unligidan tashqari, burgut, sher va sfinkslarning ramziy timsollari qo`llanila boshlandi.

ZAMONAVIY ITALIYA INTERYERLARI

Interyerda italyan uslublari : klassika va zamonaviylik. Har bir italyan uslubida qurilgan binolar asosida ikki yo`nalish yotadi. Bular- klassik va zamonaviy uslub, va ularning har biri o`ziga xos va qiziqarli(12-29-rasmlar).

Interyerda Italyan klassik uslublari. Italyan klassik uslubi qadimgi Rim me`morchiligi an`analari asosida qurilgan va shuning uchun unda antik davr an`analariga xos xususiyatlarni uchratish mumkin. Ushbu dizayndagi uylar va xonadonlarni yaratishda eng yaxshi ko`rinishlarga ega bo`lishdagi asosiy vazifa keng fazo va baland shiftidir, chunki bunday uslubni kichik xonada qo`llash juda qiyin hisoblanadi. Italyan klassikasining atributlari yana ustunlar, kolonnalar, ravoqlar ham hisoblanadi. Ular nafaqat interyerda bezak berish vazifasini bajaradi balki, xonalarni ko`rish jihatdan zonalarga ham bo`lishga xizmat qiladi. Yana bir xarakterli jihati – dekorativ me`morlik elementlari karnizlar, barelyeflar va bo`rtmalarda ko`rinadi. Italyan klassik uslubida katta derazalar ham muhim jihatlardan hisoblanadi. Binoga tushuvchi quyosh nurini hech narsa to`smasligi kerak, shu sababli bu uslubdagi pardalar iloji boricha minimal darajada bo`ladi. An`anaga ko`ra Italiyada pardalardan foydalanilmaydi, turli modifikatsiyadagi jalyuzilardan foydalaniladi. Interyerda qulay ko`rinish, chiroyli dizayn va yumshoq atmosferani muvozanatga keltiruvchi toshlardan va shiftdagi yog`och balkalar, yog`och buyum hamda yog`och poldan ham foydalaniladi.

Zamonaviy italyan uslubi. Interyerda zamonaviy italyan uslubi shahar uylarini loyihalashda ideal vosita hisoblanadi. Bu uslub klassik uslubdan farqli

o'laroq, yuqori shiftlar va katta xonalarni talab qilmaydi, chunki asosiy diqqat interyer bezaklariga emas balki, muhitga qaratiladi. Zamonaviy italyan kvartiralari eng yangi dizayn namunalarini namoyish etadigan shourumlarga o'xshaydi. Shu bilan birga, moda buyumlari vintaj buyumlar bilan organik ravishda birlashtirilishi mumkin. Zamonaviy italyancha uslubni tatbiq qilish uchun nostandart planirovka juda mos keladi. Mukammal dizayn yordamida g'ayrioddiy shakldagi xonalarning kuchli tomonlarini ko'rsatish mumkin. Zamonaviy italiyan interyerlari ixcham va yuqori texnologiyalidir. U bir vaqtning o'zida maksimal darajada funksional va qulaylikni yaratish uchun mo'ljallangan.

Kvartiralarning yana bir o'ziga xos xususiyati bu balkon. Italiyaliklar hech qachon lojialarni o'ramaydilar va ularni yana bir xonaga ajratmaydilar. Aksincha, ochiq-oydin balkon binoning jozibali ko'rinishini saqlab qoladi va ular dekorativ o'simliklar va chiroyli chiroqlar bilan bezatilgan.

Ishonish qiyin, lekin bu fakt! Zamonaviy italyan uylarida odatiy kirish qismi yo'q. XX asrning o'rtalarigacha xollning rolini disimpegno deb nomlangan uncha katta bolmagan kichik bino o'ynagan ("kommunal xonasi" deb tarjima qilingan kichik bino). Keyinchalik uni butunlay inkor qilishgan, chunki qulay iqlim issiq ustki kiyim kiyishni talab qilmaydi va yomg'irli paytlarda qorong'i ko'chalarda deyarli poyabzalni bo'yashmaydi. Italiyan uylarining xarakterli xususiyati – deraza bilan jihozlangan hammom. Bu nafaqat italiyaliklar cho'milgan paytda landshaftdan zavqlanish shu bilan birga, tabiiy yorug'lik tufayli elektr energiyasini tejashga ham yordam bergan.

Italiyan uslubidagi interyer dizayni: bezak va ranglar. Italiyaliklar qoplovchi materiallarini sotib olish jarayonida tabiiylikka yondashadilar, shuning uchun linoleum va plastmassa devor panellarini ularning uylarida uchratmaysiz. Italiya uslubi elegant darajada, shuning uchun dekoratsiya bu yo'nalishning talablariga javob berishi kerak.

Italiyan uslubidagi devorlar. Eng mashhur devor qoplamasi Venetsiya suvog'idir. Uning yordami bilan interyerga antik yo'nalishdagi o'ziga xoslikni baxsh etish mumkin. Ushbu material tabiiy marmarni eslatuvchi g'ayritabiiy teksturaga ega. Venetsian suvog'ining yakuniy qoplamasi jilolanadi, shu tufayli yorug'lik uning yuzasidan aks qaytaradi, xonani ko'rish jihatidan korrektsionalaydi, unga hajm effektini kuchaytirib beradi.

Arzonroq , ammo jozibadorligi kam bo'lmagan variant – dag'al ishlangan tosh yoki g'isht ustidan berilgan oq rangli suvoq. Bunday bezak, interyerga O'rta yer dengizi uslubiga xos xususiyatlarini beradi.

Italyan uslubiga xos pol. Italyanlar uyning barcha qismida bir xil pollardan foydalanishni avzal ko`radilar. Italyan uslubiga xos klassik variantdagi pol qoplamalari – beton yoki tosh plitalar. Yorqin kesilgan tekstura va polning bunday neytral ranglari suvoq qilingan devorlar bilan yaxshi uyg`unlashadi.

Ikkinchi mashxur variant bu – italyan zamonaviy dekorlarida ko`p qo`llanilayotgan yog`och pollardir. Odatda ular dekorda foydalanilayotgan boshqa yog`och buyumlarning effektlariga mos keluvchi parket doskalardan tayyorlanadi.

Italyan uslubidagi shiftlar Italiyaning uslubi interyerda deyarli har qanday shiftni yaratib berishingiz uchun qulay bo`lgan uslublardan hisoblanadi.

Italyan uslubidagi interyer dizayni – bu klassik va zamonaviy uslublarning kombinatsiyasi bo`lib, O`rta er dengizi uslubini yaxshi ko`radiganlar, quvnoq dizaynlarni sevadiganlar va qulay burchaklarni yaxshi ko`radiganlar uchun juda mos keladi.


Mebel tanlangan uslubga qarab tanlanadi. Italyan klassik interyerlari, asosan qo`lda yasalgan mukammal darajadagi yog`och mebellari bilan bezatiladi. Italiyaliklar buyurtma asosida maxsus tayyorlangan va ayniqsa yagona nusxada yasalgan mebellarni juda qadrlashadi. Italyan klassik uslubiga xos buyumlar - Murano shishasidan tayyorlangan tutqichlar, telefon, stol pechlari va marmar javonlaridir.

Boy tarixga ega bo`lgan buymlar dizaynda katta e`tibor markazlariga ega bo`lgan nuqtalar bo`lishi mumkin. Mexmonxonalaridagi urg`u beriladigan detallar sirasiga eski billur qandllar yoki vintaj kitob javonlari kirishi, yotoqxona interyerlarida esa ajdodlardan meros qolgan suratlar bo`lishi mumkin. Zamonaviy materiallar va noyob buymlarni uyg`unlashtirishdan cho`chishimgiz shart emas. Bu uslubdagi interyer bezaklaridagi asosiy jihat - bu yakunlangan dizaynning to`liq va organic ko`rinishini ta`minlashdir.

Italiyaliklar oilaviy urf-odatlarini hurmat qiladiganlarga nisbatan juda mehmondo'st insonlardir. Bayram tantanalari chog`ida ular oshxonadan qo`llarida likopchalari bilan yugurib chiqmaydilar. Aynan mana shuning uchun italyan uslubidagi mehmonxonalar yoki oshxonalarda katta ovqatlanish stoli mavjud bo`lishi kerak.

Zamonaviy italyan uslubining ko`zga tashlanuvchi va xarakterli jihatlari – bu, zamonaviy mebel va dekorlar, yuqori texnologiyali maishiy texnika va zamonaviy va faol trendlardir. Vellyur bilan qoplangan hajmli divanlar va nikelli yoki mis asosli konstruksiyaga ega bo`lgan va teri va tekstil bilan qoplangan

kreslolar, barxat va yog'ochdan tayyorlangan qulay formaga ega ovqatlanish stullari juda mashxur hisoblanadi.



Illyustratsiyalar

1-rasm Fabritsio ko`prigi

2-rasm Fabritsio ko`prigi

3-rasm Appiy yo`li




4-rasm Appiy yo`li



5-rasm Kolizey amfiteatrining tarxi






6-

rasm Kolizey amfiteatrining tashqi
ko`rinishi



7-rasm Kolizey amfiteatrining qirqimi




8-rasm Kolizey amfiteatrining ichki ko`rinishi



9-rasm Venera va Rom ibodatxonasi



10-rasm Panteon ibodatxonasi tarxi



11-rasm Panteon ibodatxonasining tashqi ko`rinishi



12-rasm zamonaviy Italiyan interyerlari



13-rasm



14-rasm



15-rasm



16-rasm



17-rasm



18-rasm



19-rasm



20-rasm



21-rasm



22-rasm



22-rasm



23-rasm



24-rasm



25-rasm



26-rasm



27-rasm



28-rasm



29-rasm



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. “Arxitektura tarixi”. O`quv qo`llanma. S.A.Masharipova. Toshkent-2013

Internet saytlari

1. <https://www.ivybush.ru/italyanskij-stil-v-interere>
2. http://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qadimgi_Rim
3. https://artishock.org/style_a/arhitektura-drevnego-rima
4. <https://www.ivybush.ru/italyanskij-stil-v-interere>